

Komilova Xonzoda Muzaffar qizi

ADCHTI ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

E-mail: xonzodakomilova181@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Muqimjon Axunov Muhammadaminovich**

(PhD) f.f.f.d, dotsent

E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru

Telefon: +998979977443

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OT SO‘Z TURKUMINING NAZARIYASI QIYOSIY TAXLILI

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ot so‘z turkumlari tizimidagi o‘rni va ularning leksik-grammatik talqinlangan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ot so‘z turkumlari tarjima muammolari qiyosiy tarzda amalga oshirilgan va semantik assotsiatsiyalari tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyati va taraqqiyoti mahsuli ekanligi, o‘z navbatida fe‘llarning so‘z turkumlari tizimidagi o‘rni va ularning leksik-grammatik talqinida farqlanishi tillar o‘rtasidagi tarjimalar mazmunida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalitso‘zlar: fe‘l, so‘z turkumlar, ot, affiksatsiya, grammatika, tarjima.

Ingliz tilida so‘z turkumlarini 4 tadan 13 tagacha, hatto 16 tagacha ajratiladilar kategoriyalarning har xil bosqichlaridan kelib chiqqan xolda olimlar muhim so‘z turkumlariga son, olmosh, predlog, bog‘lovchi, artikl, modal so‘zlar, yuklamalarni kiritadilar. Aniq so‘z turkumlariga qoida bo‘yicha ot, sifat, fe‘l va ravishni kiritiladi.

Ko‘pincha Yevropa tillarining ilmiy grammatik sistemasining yaratilishi grammatik sistemasining yaratilishi grek va lotin grammatikasi nuqtai – nazaridan bevosita ta‘siri ostida kelib chiqqan. Bu bir tomondan hozirgi zamon olimlari qadimgi olimlar tasniflash tadqiqotchilarning sxemasidan foydalanliklari bilan izohlansa, 2 tomondan esa va lotin mualliflari mehrlarida qo‘llanilgan terminologiyani o‘zlashtirib olinganligi ifodalangan.

G.Svit klassifikatsiyasi jarayonida ma‘noning, formaning vazifalarini umumiy tarkibining ahamiyati haqida ma‘lum qilgan 1 ingliz olimi bo‘lgan. Lekin boshqa ingliz grammi vakillaridan Yespersen, Kreyzin va boshqalar o‘zlari tomonidan taklif qilingan qarorlarni tadbiq etishdi, balki formani afzal ko‘rishdi. Va uni qolgan mezonlarga asoslanib bo‘lishdi. A.N.Savchenkoning fikricha, so‘z turkumining ma‘nosi grammatik ma‘noni keltirib chiqaradi. Lekin bu asosiy mezon emas balki boshqatdan kelib chiquvchi sintaktik bog‘liqlikdir, demak har bir so‘z turkumining ma‘nosi uzluksiz uning bog‘liqligida aks etadi. Ko‘tarilgan muammolar shuni ko‘rsatadiki aniq va muammosiz bo‘lib ko‘ringan oddiygina so‘z turkumlari ham umumiy ham hususiy tilshunoslik tarafidan qaralganda uning o‘ziga xos muammosi bor.

Bu boradagi o‘tkizilgan tekshiruvlarning aniq maqsadi bo‘lib, jumladan yangi faktlar erishilganlarni baxolabgina qolmaydi, lekin u yoki bu muammolarni yechimini topadi deb o‘ylashi mumkin.

Hozirgi paytda tilshunos olimlarning so‘zlarni so‘z turkumlariga ajratish borasida 3 asosiy tamoyilni ko‘rsatadilar. Bular:

1. ma‘no – meaning

2. shakl – forum
3. funksiya – junction

ushbu tamoyillarga ko‘ra hozirgi ingliz tilining 6 ta so‘z turkumi ajratiladi. Bu son hususida institutimiz faxriy professori, olim G‘.M.Xoshimov o‘zining qarashlarini ilgari suradi. Bular: the noun

the pronoun

the numeral

the adjective

the verb

the adverb

the modal words

the statues

the interjections

the particle

the article

the conjunction

the preposition

the responsive (Yes, no)

the recuestive (please)

the approximator (almost, nearly)

Hozirgi zamon o‘zbek tilida ham so‘zlarda so‘z turkumlariga ajratishda ko‘pgina olimlarni olib bormoqdalar. Bular jumlasiga professor A.Nurmonov, E.Krichev, V.Abduraxmonov, A.Azizova, A.G‘ulomovlarni kiritishimiz mumkin. O‘zbek tilida ham boshqa tillar singari so‘zlar mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga ajratiladi:

Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’llar mustaqil, bog‘lovchi ko‘makchi, yuklama va undov so‘zlar, yordamchi so‘z turkumlariga kiritiladi.

Ingliz tilidagi barcha so‘zlar anglatgan leksik-grammatik ma’nosi, morfologik formasi va o‘zaro sintaktik aloqaga kirishi mumkin gapdagi vazifasiga ko‘ra ma’lum guruxlarga bo‘linib, ular grammatikada so‘z turkumlari deb yuritiladi. Ingliz tilida so‘z turkumlari grammatik formalarining o‘zgrishi va o‘zgarmasligiga ko‘ra ikkiga ajratiladi:

1. o‘zgaruvchi yoki paradigmaga ega bo‘lgan so‘z turkumi;

2. o‘zgaraydigan yoki paradigмага ega bo‘lmagan so‘z turkumlariga bo‘linadi.

Ot, sifat, olmoshlarning birinchi qismi ayrim ravishlar va fe‘llar o‘zgaruvchi ya‘ni paradigмага ega so‘z turkumlarini, qolganlari esa o‘zgaraydigan so‘z turkumlarini tashkil qiladi.

So‘z turkumlarining gapdagi vazifalari ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayrim so‘z turkumlari gapda mustaqil gap bo‘lagi vazifasida kelsa, ayrimlari bu vazifani o‘ta olmaydi. Shunga binoan so‘z turkumlari mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linadi.

Ingliz tilidagi ot so‘z turkumi mustaqil so‘z turkumlaridan biri bo‘lib, ular ma‘nosiga ko‘ra predmetni yoki predmetlashganlikni ifodalaydi. Formasiga ko‘ra o‘z paradigmasiga va gapda mustaqil funksiyasiga ega:

Boy – boys, ox – oxen, child – children, knife – knives, wolf – wolves

Ann is a student

O‘zbek tilida ham ot mustaqil so‘z turkumlarining biri bo‘lib, u boshqa turkumlardan bir necha belgi – xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ot so‘zining leksik ma‘no tashuvchi qismi (so‘zdagi bunday qism leksema deb yuritiladi) predmetlik ma‘nosini anglatadi. Bunday ma‘noli leksema predmetni ham, predmet deb tasavvur qilinuvchi mavhum tushunchani, voqea – xodisani, belgini ham anglatadi: kitob, daftar, qiz, o‘g‘il, ota, uy, yog‘och, yolbars, vodi, temir, yog‘, xayot, kulgi, uyqu, tush, xazil.

Hozirgi zamon ingliz tilida so‘z va so‘zning negizi bir xil ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda ingliz tilida so‘zlar o‘zak (root) va negizdan (stem) tashkil topsada, aslida negiz va so‘z bir-biri bilan moslashadi. Undan tashqari ayrim o‘zak, negiz va so‘z bir xil bo‘lishi mumkin.

Masalan: boyishness – bolalik, o‘smirlik, copyist – qayta ko‘chiruvchi, debater – muxokama qatnashchisi, gasification – gazlashtirish kabi so‘zlar ham negiz ham so‘zdir, ammo ularning o‘zagi har hil. Ammo ko‘p o‘zakli so‘zlarda, o‘zakning sonidan qat‘iy nazar, negiz va so‘z o‘zagi bir xil bo‘lmaydi. Masalan: grafter – chorvador, grinder – qayroq, mother – in – law – qaynona, forget – me – not – va boshqa so‘zlar ikki va undan ortiq o‘zakdan iborat bo‘lsada, ularning negizi yasama (grifer, grinder) va qo‘shmadir. (goose – grease/ g‘oz yog‘i), goodwill (yaxshi niyat).

Grammatik forma yasovchi affikslarning + shi orqali so‘zlarning strukturasi o‘zgaraydi: book – books, work – worked, long – longer so‘zlaridagi 1-ed, 2-er suffikslari grammatik morfema bo‘lganligi sababli ular qo‘shilganda so‘zlar soddaligicha qoladi.

Internet ma‘lumotlarga ko‘ra ingliz tilidagi “noun” so‘zi lotincha “nomen” ya‘ni nom degan so‘zdan kelib chiqqan.

Ingliz tilidagi otlar gapda ega to‘ldiruvchi, xol aniqlovchi va qo‘shma ot kesimning bir qismi vazifasida ishlatiladi:

John is an engineer

I saw a teacher in the room

A woman doctor is worked in this hospital

Shuningdek ingliz tilidagi otlarda ikkita grammatik kategoriya bo‘lib, ular birlik va ko‘plikni ifodalovchi son kategoriyasi hamda bosh va qaratqich kelishigini ko‘rsatuvchi kelishik kategoriyasini tashkil etadi. Avvalo ingliz tilida otlar ikki guruxga ajratishimiz kerak, bular sanaladigan va sanalmaydigan otlarga ajratamiz.

Countable Uncountable,

Pen, book, bag, room, table, gold, water, oil, lamp, box, fox, love, knowledge, wolf, child, girl.

Sanaladigan (Countable) otlarning birlik (singular) ko‘plik (plural) shakllari quyidagi usullar bilan yasaladi: -s –es: boy-boys, box-boxes, bus-buses.

-en: child-children, ox-oxen, o‘zakdagi o‘zgarish orqali:

Man-men, goose-geese, foot-feet, mouse-mice, wife-wives, life-leaves, calf-calves.

Zamonaviy ingliz tilida otlarning singularia tantum va pluralia tantum kabi turlari ham ajratilgan bo‘lib, singularia tantum faqat birlik va ko‘plikda ham shu shakllari ishlatiladi:

Milk, oil, water, full, chalk, deer, sheep, swine, grouse kabi) kiritiladi. Nouns of Morelia tantrum trousers, pants, sharts pyjamas, pincers, tongs, betters goods, clother, sawing, winning.

Shuningdek kelishik kategosi ham ingliz tilida otlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ega.

Ular son jihatdan 2 ta sanalsada, hozirgi zamon ingliz tili nazariy grammatikasi olimlarimiz ularning sonini 6 ta deb qabul qilishmoqda: nominative, genitive, dative, accusative, locative, vocative.

Internetda hozirgi zamon ingliz tilida yana 1 kelishik turi qo‘shilmoqda:

Instrumental: I write with a fountain pen.

O‘zbek tilidagi otlar 2 grammatik kategoriyalarining son va kelishik kategoriyasini oladi. Otlarda 3-1 grammatik kategoriya egalik kategoriyasi ham mavjud, ammo u har 1 ot leksima grammatik shakllanishida qatnashuvchi diomiy forma emas vakili qatnashsagina, bu grammatik kategoriya haqida gapiriladi:

Palto*im*ni olib bering. Har ikkala tildagi ot leksema o‘zi olgan kelishik formasiga muvofiq ega qaratuvchi-aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol va kesimning 1 qismi bo‘lib kela oladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni hisobga olib ot so‘z turkumiga quytdagicha ta’rif berish mumkin: predmet va ma’nosini inglatib, nutqda son, kelishik kategoriyalarining formasini olib, ega, to‘ldiruvchi, hol kabi vazifalarda keladigan leksema ot deyiladi. Shunday tabiatli leksemalar ot turkumi nomi bilan birlashtiriladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi otlarning grammatik kategoriyasi haqida ularning o‘xshash va farqli tomonlari haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin bevosita mavzudan chetlanmaslik maqsadida, otning struktural tasnifi haqida fikr yuritsak.

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. A. “Hozirgi zamon ingliz tili nazariy fonetikasi”. Toshkent, 1986. 60-63 betlar
2. Azizov O. A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 1963.
3. Buronov J. B. Ingliz va uzbek tillari kiyosiy grammatikasi. Toshkent, 1973. 144-bet
4. Buranov Dj. B., Yusupov U. K., Iriskulov M. T., Sadikov A. S.
5. Grammaticheskie strukturi angliyskogo, uzbekskogo i russkogoyazikov. Tashkent, 1986. 70-bet
6. Karimov Sh. K. «Tilshunoslikka kirish» kursidan praktikum. T., 1987. 14-bet
7. Kuchqortoev I., Kuchqortoeva R. «Tilshunoslikka kirish». T.,1976. 166-b
8. Kuchqortoeva R. «Tilshunoslikka kirish» kursidan maishlar. T., 154-b 1989.
9. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. Uzbek tili. Toshkent, 1978. 125-b
10. www.ziyonet.uz